

## O‘ZBEK RAQS SAN’ATIGA OQILOVLAR SULOLASINING QO‘SHGAN HISSALARI

**Xayrullo Atavullayev**

*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘lim boshlig‘i*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek raqs san’atiga Oqilovlar sulolasining qo‘shgan hissalari va bugungi kunda tutgan o‘rni, raqs repertuarlari haqida ilmiy bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqs, buxora, san’at, liboslar, milliy, zang, ijro mahorati.

O‘zbek xoreografiya san’atining turli-tuman janr va shakllarga egaligi, nihoyat darajada murakkabligi iste’dodli ijorochilardan tashqari juda katta professional ustalikni talab qiladi. San’atning biror sohasini o‘rganish uchun yillab vaqt sarf qilish, janr qanchalik murakkab bo‘lsa, uni ijro etish uslublarini o‘rganish uchun ham ko‘p vaqt kaerakdir. Raqs san’atida ham mana shunday mashaqatli mehnat talab qiladigan san’at turidir.

Buxoro raqsi haqda gaprilganda I.Oqilov ijodi, bu maktab uchun qo‘shgan xissasi to‘g‘risida aytmasdan ilojimiz yo‘q. I.Oqilov Buxoro raqs maktabini eng yuqori cho‘qqiga olib chiqqan ijotkordir. Ammo bugungi kunga kelib I.Oqilov boshlab bergan yo‘l bir oz sustlashgan, yaniy buxoro raqslari ijrosida yangilik yo‘q. qachonlardir baletmeyster I.Oqilov sahnalashtirgan ayrim raqslarni hisobga olmaganda, professional va xavaskor raqs kollektivlari, asosan, Farg‘ona hamda Xorazm raqsi an‘analarinigina o‘zlashtirib, rivojlantirib kelmoqda.

Buxoro raqsi zsa hamon e’tibordan chetda. Bu — juda achinarli hol. Zero, Buxoro xalq raqsi o‘zbek sahnaviy raqsini, balet san’atini yangi mazmun va shakllar bilan, yangi jilo bilan boyitishi mumkin. Buxoro raqsi deganda, o‘tmishda Buxoro amirligi xudididagi yirik shaharlarda rasm bo‘lgan hamda professional raqqos va raqqosalar tomonidan ijro etilgan o‘ziga xos, xilma-xil o‘yinlarni nazarda tutamiz. «Shashmaqom»ning taronalari, uforlari



bilan ijro etiladigan raqslar, «Mavrigi» deb atalgan vokal raqs turkumi, navro‘z bayrami, davlat tomonidan uyushtiriladigan sayillarda nog‘ora, surnay va karnaylarning usullarida ijro etiladigan qator raqslar, shuningdek, turli xarakterdagi bazmlarda, to‘ylarda ko‘rsatiladigan muqallid-pantomimalar, kulgili o‘yinlar, qoshiq, tayoq, qayroq, pichoq, urishtirib, belga yasama ot, yuzga niqob tortib namoyish qilinadigan turli-tuman yakka hamda umumiy raqslar ana shular jumlasiga kiradi<sup>1</sup>.

Tarixda Buxoro amirligidagi ko‘pgina shaharlarda xalq orasida va saroylarda maxsus raqqoslar

<sup>1</sup> Abdeyeva L. O‘zbek milliy raqs tarixidan birinchi kitob – Mukarrama Turg’unboyeva nomidagi O‘zbekraqs milliy raqs birlashmasi, -T., 2001.

20-Fevral, 2025-yil

to'pi bo'lgan. Ayniqsa, amirlik poytaxti — Buxoroda zamonasining eng mashhur raqqoslari to'plangan. Rajabali, Dakanxon, Juraxon, Ergashcha, Fayzicha, Nurullo, Karimcha bozinger, Rodicha, Hamidcha, Islom Shodi, Hamdamxon, Mirzaxon, Ahmadcha, Abdurahmon, Jumacha Chortoriy, Iskandar, Maston, Chavkarxon va boshqalar shular jumlasidandir.

Ularning san'at ham mazmun, ham mahoratda yuksak saviyada bo'lgan. Buxoroga **tashrif** buyurgan rus etnograflari, elchilari va sayyohlarining e'tiborini san'atlar ichida raqs ko'proq jalb etganligi ham shundan guvohlik beradi. Sayyohlardan biri (familiyasi kursatilmagan) «Туркистанские ведомости» gazetasining 1875-yil 14-yanvar sonida raqslar «shu qadar jozibali va nafiski, ularni muvaffaqiyat bilan Evropa sahnasida ham o'ynasa bo'ladi», deb takidlab otilgan. Buxoro saroy raqqoslarining o'nlab bazmlarida ishtirok etgan rus elchisi V. V. Krestovskiy esa ularning san'atiga qoyil qolib: «Chindan ham lol qolasan kishi, qanday qilib bu o'yinchilar 3-4 soat davomida qariyb bir nafas ham dam olmay shu qadar shiddatli na texnik jihatdan murakkab tana harakatlari bilan bog'liq bo'lgan xoreografik mashqlarni bajara olarkan», degan fikirlar mavjud.

Umuman, Buxoro raqqoslari, jumladan saroy ansambli xilma-xil xalq o'yinlaridan tashqari «Bozi kalon» bilan «Mavrigi» deb atalgan raqs turkumlarini ham ijro etishda mahorat ko'rsatganlar.

«Bozi kalon» maqom muzikasi asosida o'ynalgani sababli harakatlar kompozitsiyasi puxta ishlangan, keng davraga mo'ljallangan, raqslari viqorli, ayni chog'da mayin va nafis bo'lgan. Unda qoida bo'yicha raqqoslar toq sonda: uch, besh yoki etti nafar bo'lib, tomoshabinlar oldiga qator terilganlar. Usta raqqos har vaqt o'rtada bo'lgan. Ustlarida har er, har erida kashta tikilgan qizil chit ko'ylak va keng qizil kamar, boshlarida zardo'zi do'ppi kiygan. Raqs hamma vaqt raqqosalar go'zalligi va fazilatlarini madh etuvchi yallalardan boshlangan. Odatda, oyoq yalang, doiralar yoki cholg'u ansambli jo'rligida ashula bilan ijro etilgan. Oldin raqqoslar tizilib, boshlarini bir oz orqaga va yonga tashlab, tizzalarini sal-pal bukib, goh o'ng, goh chap qo'lini engil oldinga uzatib, sekin-asta davrani aylanganlar. Cho'kka tushib o'tirib olgan tomoshabinlar qarsak chalib, chayqalib turgan. Raqqoslar bir necha marta yunalishni o'zgartirib, davra bo'ylab goh o'ngdan, goh chapdan orqaga qaytganlar, yonma-yon terilib goh tomoshabin tomonga, goh orqaga yo'rg'alaganlar. So'ng takt usul tezlashib, ijrochilarning harakatlari dadilroq, shiddatliroq, keskinroq bo'la borgan va doiralarning tezkor rezlari ostida charxga, ba'zan sakrab raqs tushushgan. Shundan keyin ba'zan xor, ba'zan yakka yoki duet bo'lib bir ovozda ashula boshlangan, nog'orachilar ham unga qo'shilib turgan. Bir necha shunday harakatdan keyin birinchi bo'lim yoki «Bozi kalon» tugagan.

«Mavrigi» raqslari V.V.Krestovskiyning ta'biri bilan aytganda «jiddiy komediyadan keyingi engil vodevildir» degan fikirlar mavjud. Bu o'yinlar, odatda, engil, sho'x so'zli va ohangli yallalar bilan olib boriladi. Buxoro raqqoslari repertuarida «Ajdaho o'yin», «Otash kema» degan raqslar ham bo'lgan. Umuman ijrochilar barmoqlarni titratish; bel chayqash, soch silab, shox tashlash; tizzalab utirib orqaga tashlanib, bir o'ng, bir chap tomoni chayqalish; orqaga ergacha egilish; bir tizzasini bukib o'tirgan raqqos atrofida barmoqlarni qirsillatib aylanish, yo'rg'alash, charx, yengil o'tirib turishlar, gavdani tik tutib yurishlar, qo'llarning go'zal harakatlari, oyoqlarni erga shiddat bilan urishlar, davra buylab murakkab shakllar yasab aylanishlar, kabi harakatlardan keng foydalanganlar<sup>2</sup>. Buxoroda xotin-

<sup>2</sup> Каримова Р. Урок узбекского танца. - Т.: О'qituvchi nashriyoti, 1987.

20-Fevral, 2025-yil

qizlarning esa tizzalab o‘tirib olib o‘ynaydigap paqlari keng tarqalgan. “Sozandar” (Buxoroda professional raqqoslarni shunday deb ataydilar) raqsi qo‘l xarakatlari bilan boshlanadi. Gavdadan kuprik yasash, doiraviy aylanish kabi turli-tuman ajoyib harakatlar bir-biriga juda monand keladiki, bu hol raqsni bir joyda o‘tirib o‘ynashga imkon beradi.



Isohor Oqilov 1914-yili Samarqandda tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugallashi bilan ilmiy tekshirish instituti qoshidagi o‘quv gruppasiga o‘qishga kiradi. Bu erda o‘zbek musiqa san’atining mashhur ustalari rahbarligida doyra, g‘ijjak va skripka chalishni o‘rganadi.

Isohor Oqilov teatr huzurida tashkil qilingan balet studiyasida A. K. Bekdan klassik balet bo‘yicha saboq oladi. U dastlab trenaj mashqlarda qatnashar ekan, A.M.

Chetvertakovning “Qizil gul, oq gul” nomli bir pardali baletida yigit raqsini, zamonaviy mavzular asosida yaratilgan “O‘roq va bolg‘a”, “Budyoniycha” raqsarini ham ijro etadi<sup>3</sup>. Bu xildagi zamonaviy yangi mavzudagi raqsar o‘sha yillarda qadimgi xalq kuylari asosida, masalan, “o‘roq va bolg‘a” raqsi Buxoro xalq kuylaridan hisoblangan “Baljuvon” kuyi asosida sahnalashtirilgan edi.

Isohor Oqilov bundan tashqari, konsertlarda mustaqil raqs nomerlaridan “Komsomol raqsini”, “Arshin mol-olon” musiqali komediyada Halima Raximova va Mukarrama Turg‘unboeva bilan birgalikda “Lazgincha” raqsini o‘ynaydi, “Rizovarchi” pesasida ham raqqoslik qiladi. Isohor Oqilovning eksperimental teatrdan ishtirok etishi ijobiy natijalar bera boshladi<sup>4</sup>. U endi klassik balet harakatlarini professional ustozlardan o‘rganar va xalq raqsarini ijro etganda mana shu klassik balet raqs harakatlarini mohirona qo‘llay olgan xolda xalq orasida o‘ynaladigan raqsarini yangi-yangi elementlar bilan boyita boshladi, ayni vaqtda o‘zbek va tojik xalq raqsarining xilma-xil turlarini, yangi forma va harakatlarini ustozlardan o‘rganish hamda ularni ijro etishda davom etdi.

Bundan tashqari, Isohor yoshligida ta‘lim olgan ustozlari-Gavriel va Mixail Mulloqandovlar, Mixail Tolmasov va boshqalardan xalq raqs usullari va xillarini o‘rganishda davom etdi. “Buxorocha yor-yor”, turli tumani mavrigi qo‘shiqlar jo‘rligida o‘ynaladigan raqsar shular jumlasidandir.

1929 yildan boshlab bu ansambl “Eksperimental musiqali dramatik teatr” deb atala boshlandi. Ushbu guruhda mashhur raqs ustalari Usta Olim Komilov va Yusupjon qiziq Shakarjonovlarning bo‘lishi teatr sahnasidagi o‘zbek raqs san’atining drama bilan uzviy aloqada ekanligi hamda yangi sahna raqsarining shakllanayotganidan dalolat berardi.

<sup>3</sup> Abdeyeva L. Танцевальное искусство Узбекистана. -Т.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1960.

<sup>4</sup> Каримова Р. Урок узбекского танца. - Т.: O‘qituvchi nashriyoti, 1987.

Isohor Oqilov mazkur teatrdagi o‘z faoliyatini aktyor sifatida namoyon etadi. Dastlab u ozarbayjon kompozitori Uzeir Hojibekovning “Arshin mol-olon” musikalik komediyasida Vali, undan keyin Xurshidning “Farhod va Shirin” musikalik dramasida Yosuman rollarini o‘ynadi.

U 1929 -yildan boshlab Oqilov musikalik drama teatrida o‘z faoliyatini yuritadi. Teatrning barcha artistlari kabi u ham dramatik rollarda: laparlar aytdi va o‘yinga tushdi. Usta Olim Komilov bilan Tamaraxonim bu yigitchadagi g‘ayrat-shijoat ishtiyoqni hamda uning raqs ritmlarini tez ilg‘ab olishini ko‘rib, harakatlarni juda aniq va chiroyli ijro etishi bois, unga qiziqib qoladilar va raqs studiyasiga qabul qilishga axd qiladilar.

Studiyada Isohor Oqilov “Katta o‘yin”ning barcha usullarini, kichik formadagi raqslarning butun sirlarini va janrli raqs sahnalarini o‘rganib oladi. Lekin eng muhimi-ommaviy raqs tuzilishi qonunlarini tez o‘zlashtiradi. Shu bois ham Isohor Oqilovni raqsini sahnalashtirish qobiliyati rahbarlar nazariga tushadi. Yosh raqqos 1932-yilda Samarqanddagi yahudiy musikalik drama teatrining rahbari qilib tayinlanadi. Isohor Oqilov bu teatrni tashkil etishda ham yaqindan yordam bergan edi. Teatrdagi rejissyor, baletmeyst, raqqos bo‘lib ishlaydi. Ikki yildan so‘ng Laxuti nomli Stalinobod musikalik drama teatriga ishga yuboriladi va u erda baletmeyst hamda raqqos bo‘lib ishlaydi. Isohor Oqilov Samarqand va Stalinobod teatrlarining bir qancha spektakllarida raqslarni sahnaga qo‘yadi<sup>5</sup>.

Isohor Oqilov navqironligida ijro etgan, biri ikkinchisiga o‘xshamagan raqs o‘zining tabiiyligi, milliyliigi, jozibadorligi va chuqur falsafiy mazmundorligi bilan tomoshabinlarni yillar davomida maftun qilib keldi. Turli xil millat, ijtimoiy davrga mansub raqs xususiyatini mohirona aks ettira bilish ham Isohor Oqilovning ajoyib san‘atiga sayqal berib turadigan xislatlardan biri hisoblanadi.



1930-yil Moskvada xalqlar teatr san‘atining Butun ittifoq olimpiadasi bo‘lib o‘tdi. Bu olimpiadada mamlakatimizning 17 ta teatr jamoalari ishtirok etdi. U erda O‘zbekiston respublikasidan “Hamza nomli dramatik teatr” va “O‘zbek Davlat musikalik teatr” ishtirok etib, to‘rtta spektakl: “O‘rtoqlar”, “Lolaxon”, “Halima” va “Erk bolalari”ni namoyish qilinadi. O‘zbekiston artistlari yana zamonaviy mavzudagi “Qizlar, shitobingiz nima?”, “Fabrika” laparlarini ham ijro etdilar. Bundan tashqari Usta Olim Komilov, Muhiddin Qoryoqubov va Tamaraxonim sahnalashtirgan bir qancha raqs va laparlar ham dasturdan katta o‘rin olgan edi. Bu olimpiadada Tamaraxon va Mukarrama Turg‘unboeva Usta Olim Komilov doirasi jo‘rligida “Daromadi go‘l o‘yini”, “Katta o‘yin”, “Ufori soxta” raqsini ijro etdilar<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Тангуриева С. Вся жизнь в танце. - Т., 2006.

<sup>6</sup> Mukarrama Turg‘unboeva O‘zbekiston fanalar akademiyasi san‘atshunoslik instituti. -T.: O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti,1959.

Isohor Oqilov ustozlari Mixail va Gavriel Mulloqandovlar jo‘rligida “Buxoro yori”ni ijro etadi.

Isohor Oqilov 1932-1933 yillarda Toshkent musiqali teatrda ishlab yurgan paytlarida ham raqs bo‘yicha ta’lim olishni davom ettiradi. Mana shu teatr raqs kollektivida uning baletmeysterlik qobiliyati ko‘rina boshlaydi. Dastlab u farg‘onalik raqqos Ota Xo‘janing juda tez va aniq bilan bajaradigan charx (aylanma harakat)larini qunt bilan o‘rganadi. Keyinchalik u mana shu “Charx” raqsini doirachi bilan raqqos ijrosiga moslab postanovka qiladi, so‘ngra doirachi hamda raqqos duet qilib turadigan boshqa bir raqs-Samarqand“Chorqarsagi” raqsini ham sahnalashtiradi.

1935-yili Isohor Oqilov Buxoro yahudiy teatri bilan birgalikda Tojikistonda ishladi. Shu yerda u tasodifan tojik raqqos yigiti Sang Ali bilan tanishadi. Sang Ali ko‘pchilik tojik raqslari harakati va ularning usullarini mukammal bilar va o‘zi bu raqslarni mohirlik bilan ijro etardi. Isohor Oqilov Tojikistonga borgunga qadar ustozlari va ayrim san’atkorlardan tojik xalqining raqslari haqida ko‘p marta eshitgandi. Endi u pomirliklarning murakkab sakrama harakatlari, keskin, lekin engil maxsus ritmda ijro etiladigan Kulobi raqsini, bir doyra jo‘rligida tushiluvchi ko‘histoncha, panjobcha va Shug‘non raqslarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. “Qo‘sh qarsak”, “Charxi duzonu” va Tamaraxonim bilan birgalikda “Xorazmcha lazgi” raqslarini o‘ynab, katta muvaffaqiyat qozonadi.

1939-yil dekabr oyida Isohor Oqilov butun ittifoq estrada orkestrlari konkursida ishtirok etdi va milliy raqslardagi mohirona ijrochiligi uchun ashulachi K. Shuljenko va so‘z ustasi Arkadiy Raykin qatorida shu konkurs mukofoti bilan taqdirlandi. Isohor Oqilov shu yiliyiq avgust oyidan to 1940-yilning fevral oyigacha, ya’ni yarim yildan ortiqroq vaqt davomida katta Farg‘ona kanali qurilishlarida, Kronshtadt dengizchilari orasida, Tojikiston va Farg‘ona vodiysi bo‘ylab o‘tkazilgan gastrol konsertlarida yakka raqqos sifatida ishtirok etdi<sup>7</sup>.

1941-yil oxirida Isohor Oqilov Tamaraxonim boshchiligidagi ansambl bilan Buxoro, Termiz, Qarshi shaharlarida bo‘ldi, 1942-yilda esa, Boku, Tibilisiya, Erevan va Qora dengiz harbiy floti jangchilariga ko‘rsatilgan konsertlarda o‘z mahoratini namoyish qildi. Shunday qilib, san’atkor turli xalqlar raqslarini ko‘rishi, o‘rganishi natijasida raqqos-baletmeysterlik mahoratini yuksaltirdi, raqs san’ati xazinasini yangi-yangi durdonalar bilan boyitib bordi.

Baletmeyster har doim davr tomoshabinining estetik didini o‘stiradigan yangi repertuar tanlar, o‘zi ham postanovkalarni ijod etarkan, ko‘proq yosh raqqoslarga tayanib ish olib borardi. Chunki u yoshlarning raqs san’atini klassik an’analar asosida boyitishlari, yangi pog‘onalarga ko‘tarishlariga ishonardi. Isohor Oqilov besh yil davomida yangi raqs postanovkalari ustida izlanishlar olib bordi. U Samarqand teatri studiyasida ustozlari A.K. Bek va Usta Olimdan o‘rgangan raqslarni endi o‘zi postanovka kila boshladi. U “Buxoro shashmaqomi” kuylari asosida yangi raqsalar yaratdi. “Qashqarchan Ajam”, “Ufari

<sup>7</sup> Hamrayeva G. Raqslarning milliy qiyofasi. -T.:San’at nashriyoti, 2012.

Navo”, “Savti Ajam”, “Ufari ajam”, “Soqiynoma”, “Ufari Segoh”, “Chavandoz” singari maqom yo‘llari yakka va grupp bo‘lib o‘ynaladigan melodik usul manbai vazifasini o‘tadi.

Mohir baletmeyster Isohor Oqilov raqs ijrochilaridan yorqin obrazlar yaratish, mahoratni oshirish uchun tinimsiz ishlash va doimo izlanishda bo‘lishni talab qilardi. Isohor Oqilovni “Xoreografiya san’atining tug‘ma izlanuvchisi” deyish mumkin. U har doim yangi formalar “usul va uslublar” hamda yangi-yangi obrazlar izlash bilan band bo‘lgan. Baletmeyster xoreografiya san’atining mavjud doirasini vokal, cholg‘u va poetik formalar kiritish yo‘li bilan kengaytirish borasida mudom izlanishida edi. Isohor Oqilov raqslarni sahnalashtirganda folklor musiqalardan, professional kompozitorlar ijodidan keng foydalangan. “Shodlik” raqsini “Buxoro shashmaqomi” ning “Rok usuli” bilan boshlaydi, so‘ngra qadimgi o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan “Hay-yor-yor” qo‘shig‘i kuyiga o‘tadi, Sayfi Yo‘ldoshevning “Orom”, “Baxt kuyi”, “Go‘zal qizlar” kuylari ham xilma-xil raqs nomerlari yaratilishida manba bo‘ldi. “Erkin zamon” raqsida esa, to‘rtta uyg‘urcha usuldan foydalanildi, “Shodlik” raqsining 1960-yildagi tanlovi Buxoro mavrigisi kuylari-“Mahma Hasanjon”, “Aspanjayiman” singarilar asosida raqs sahnalashtirgan<sup>8</sup>.

Isohor Oqilov o‘zining ko‘p yillar samarali davom etgan baletmeysterlik faoliyati davrida O‘zbekiston, Tojikiston va boshqa qardosh respublikalar raqs san’ati sohasida xormay-tolmay ish olib borayotgan, hamda ko‘plari hozirda mashhur raqs ustalari darajasiga etgan san’atkorlarga ta’lim berdi.

Oqilov o‘zbek raqs san’atini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan taniqli xoreografiya namoyandalari qatoridan mustahkam o‘rin olgan san’atkorlardandir.

Isohor Oqilov singari mahoratli raqqos va baletmeysterlarni yuzaga keltirishda muhim rol o‘ynadi. Zamondosh milliy raqs postanovkachilari va baletmeysterlari o‘tmish an’alaridan ijodiy foydalanish bilan birga shu merosni boyitib, taraqqiy ettirmoqdalar.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida Isohor Oqilovning: An’anaviy-mumtoz (“Sevgi taronasi”, “Munojot”, “Tantana”, “Buxoro yulduzi” kabi), zamonaviy (“Tong malikasi”, “Uch guzal”, “Shodiyona” va boshqalar) raqslarni sahnalashtirgan. Ijro etgan raqslaridan “Char-xi do‘zon”, “Katta uyin”, “Lazgi”, “Yakkaqars”, “Ohangi ko‘histon” kabi raqslarni mahorat bilan ijro etgan. Xususan, saxnalashtirgan va mahorat bilan ijro etgan raqslari bugungi kunda Buxoro raqs maktabi faoliyatida juda keng qo‘llanilmoqda va bu asarlar Buxoro raqsning rivojiga kata xissa qo‘shganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdeyeva L. O‘zbek milliy raqs tarixidan birinchi kitob – Mukarrama Turg’unboyeva nomidagi O‘zbekraqs milliy raqs birlashmasi, -T., 2001.
2. Abdeyeva L. Танцевальное искусство Узбекистана. -T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1960.

<sup>8</sup> Sayfullayeva D, Kazakboyeva Z, O‘zbek raqs san’ati tarixi va raqs saxnalashtirish sirlari. -T.: Voris nashriyoti, 2006

20-Fevral, 2025-yil

3. Каримова Р. Урок узбекского танца. - Т.: O'qituvchi nashriyoti, 1987.
8. Sayfullayeva D, Kazakboyeva Z, O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs saxnalashtirish sirlari. -T.: Voris nashriyoti, 2006.
9. Mukarrama Turg'unboyeva O'zbekiston fanalar akademiyasi san'atshunoslik instituti. -T.: O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959.
10. Hamrayeva G. Raqsning milliy qiyofasi. -T.: San'at nashriyoti, 2012.
11. Тангуриева С. Вся жизнь в танце. - Т., 2006.
12. Karimova R. O'zbek raqslari. -T.: Cho'lpon nashriyoti, 2003.

